



The concept of sanctions and economic restrictions in international law

Mukhammadjon TURSUNOV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
15 July 2024
Accepted 25 July 2024
Available online
15 August 2024

Keywords:

sanctions,
economic restrictions,
international law,
international relations,
League of Nations,
UN,
violator state,
international responsibility.

ABSTRACT

This article analyzes the use of sanctions and economic restrictions in international law, their main goals and impact on international relations. The author examines in detail the legal basis of sanctions and their application within the framework of international law. The article also presents various approaches to the terminological interpretation of sanctions proposed by academics.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss7/S-pp190-195>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xalqaro huquqda sanksiyalar hamda iqtisodiy cheklovlar tushunchasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

sanksiyalar,
iqtisodiy cheklovlar,
xalqaro huquq,
xalqaro munosabatlar,
Millatlar Ligasi,
BMT,
huquqbuzar davlat,
xalqaro javobgarlik.

Ushbu maqolada xalqaro huquqda sanksiyalar va iqtisodiy cheklovlarning qo'llanishi, ularning asosiy maqsadlari va turli mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sirini tahlil qiladi. Muallif sanksiyalarning huquqiy asoslari va ularning xalqaro huquq doirasida qanday qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada sanksiyalarni terminologik talqin qilish bo'yicha olimlar tomonidan ilgari surilgan turli yondashuvlar keltirib o'tilgan.

¹ Teacher, Constitutional Law Department, Tashkent State University of Law. E-mail: tursunovm976@gmail.com

Понятие санкций и экономических ограничений в международном праве

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

санкции,
экономические
ограничения,
международное право,
международные
отношения,
Лига Наций,
ООН,
государство-нарушитель,
международная
ответственность.

Данная статья анализирует применение санкций и экономических ограничений в международном праве, их основные цели и влияние на международные отношения. Автор подробно рассматривает правовые основы санкций и их применение в рамках международного права. В статье также представлены различные подходы к терминологической интерпретации санкций, предложенные научными деятелями.

Sanksiyalar va iqtisodiy cheklovlar bir yoki bir nechta davlatlar, xalqaro tashkilotlar yoki koalitsiyalar tomonidan boshqa davlat yoki xalqaro huquq subyektiga o'z xatti-harakatlarini o'zgartirish uchun bosim o'tkazish maqsadida ko'riladigan choralaridir. Ushbu choralar turli sabablarga ko'ra, masalan, xalqaro huquq normalarining buzilishi, inson huquqlarining buzilishi yoki xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish uchun qo'llanilishi mumkin.

Sanksiyalar va iqtisodiy cheklovlar turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan, savdo embargolari, aktivlarni muzlatish, sayohatlarni taqiqlash va moliyaviy cheklov kabilardir. Ular muayyan shaxslar, yuridik shaxslar yoki sektorlarga mo'ljallangan yoki ular butun mamlakatga ta'sir qiluvchi kengroq chora-tadbirlar ham bo'lishi mumkin.

Huquqiy lug'atda "sanksiya" atamasi xalqaro shartnomalarni buzgan davlatga nisbatan qo'llaniladigan harbiy, iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi majburlov choralari tizimini anglatadi [1].

Sanksiyalar instituti xalqaro huquqing bir bo'g'ini sifatida xalqaro huquq bilan bir vaqtda rivojlandi. Shuningdek, xalqaro huquqda iqtisodiy sanksiyalarning roli kuchayishiga 1920-yil 10-yanvarda tashkil topgan Millatlar Ligasining ham o'rni beqiyos, chunki Millatlar Ligasi tashkil etilgunga qadar "sanksiyalar" birinchi navbatda iqtisodiy ta'sir choralarini nazarda tutgan. 1920-yilda qabul qilingan Millatlar Ligasi Nizomining 16-moddasida xalqaro huquqda sanksiyaning tutgan o'rniga alohida e'tibor berilgan va quyidagicha belgilab qo'yilgan "harbiy, dengiz yoki havo kuchlari"ga zarurat tug'ilganida Liga a'zolari bir birlarini xurmat qilgan holda hamda qo'llab quvvatlash maqsadida o'z xarbiy kuchlari bilan bir birlariga yordam qilishi shuningdek, Liga a'zolariga nisbatan cheklov choralarini qo'llagan davlatlarga nisbatan birgalikda xarakat qilish nazarda tutilgan [2].

Millatlar Ligasi nizomida belgilangan qoidalar BMT o'z faoliyatini boshlaganidan so'ng ancha kengroq tushunila boshladi va BMTning keyingi faoliyati bu tendentsiyani faqat kuchaytirdi. Bundan tashqari, XX asrda xalqaro munosabatlarda xalqaro huquq subyektlari o'rtasida turli xil ziddiyatlarni paydo bo'lishi zamonaviy sanksiyalarning javobgarlik shakllariga emas, balki mohiyatiga ko'ra majburlash choralariga yaqinroq bo'lishiga olib keldi. Misol uchun, ikkinchi jahon urushidan keyin Germaniya va Yaponiyaning qurolli kuchlarga ega bo'lish huquqidan mahrum qilinishi ham BMTning majburlov choralarini qo'llash huquqi asosida qabul qilingan sanksiyalarning yana bir yangi turi edi.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash joizki, BMT tomonidan xalqaro huquq normalarini buzuvchi yoki xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soladigan davlat fuqarolariga nisbatan qo'llaniladigan choralar ham xalqaro-huquqiy adabiyotlarda sanksiya deb ataladi. Bunga misol qiladigan bo'lsak, ayrim davlatlar tomonidan boshqa bir davlat fuqarolariga nisbatan davlat hududiga kirishni cheklash va yoki ularga tegishli bo'lgan aktivlarni muzlatib qo'yilishini olishimiz mumkin. Hozirgi kunda fuqarolarga nisbatan qo'llanilgan bir qancha sanksiyalarni ko'rishimiz mumkin, Rossiya Federatsiyasining Ukrainaga nisbatan olib borayotgan siyosati tufayli Rossiyalik tadbirkorlar va davlat amaldorlariga nisbatan Yevropa va AQSh tomonidan bir qancha iqtisodiy hamda siyosiy cheklov choralari qo'llanilmoqda.

Xususan, Buyuk Britaniya tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan sanksiyalar ro'yxatidan asli O'zbekistonlik bo'lgan biznesmen A. Usmonov va unga tegishli bo'lgan "USM" xolding va A. Usmonovga aloqador deb topilgan "Curzon Square" va "Hanleu"lar joy olgan. "USM", "Curzon Square" va "Hanleu"lar nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar natijasida Buyuk Britaniyada joylashgan barcha A. Usmonovga aloqador aktivlar muzlatilgan [3].

Xalqaro huquq nazariyasida "sanksiyalar" tushunchasini terminologik talqin qilishda yagona yondashuv mavjud emas. Xalqaro huquqda bir qancha olimlar sanksiya bo'yicha turlicha fikrlar mavjud bo'lib, ulardan bir nechtasini quyida keltirib o'tamiz.

Huquqshunos olim V.A. Vasilenkoning fikricha sanksiyalar davlat yoki xalqaro tashkilot tomonidan qo'llangan bo'lishidan qat'iy nazar ularning barchasi qonuniy majburlov choralari nazarida tutadi. Olimning fikricha, xalqaro huquqiy sanksiyalarning asosiy elementlari bu: retorsiyalar; repressiyalar (faqat qurolsiz); o'zini himoya qilish; hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan qurolsiz va qurolli majburlov choralari hisoblanadi [4].

Xalqaro huquqda sanksiyalarni xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan majburlov choralari sifatida tushunish ichki doktrinada bir necha bor asoslab berilgan. Ya'ni, T.N. Neshataeva sanksiyalar deganda "xalqaro huquq normalarida mustahkamlangan, majburlov xarakteriga ega bo'lgan va huquqbuzar davlatga nisbatan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda xalqaro huquq va tartibni himoya qilish bo'yicha institutsional mexanizm yordamida qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha choralar tushunilishi kerak" [5] deb ta'rif bergan bo'lsa, A.V. Kalinina esa sanksiyalarga javobgarlik mexanizmi sifatida ta'rif bergan unga ko'ra, "sanksiyalar – bu huquqbuzarga xalqaro huquq subyekting institutsional mexanizmidan foydalangan holda uni xalqaro majburiyatlarini bajarishga undash uchun qo'llaniladigan jamoaviy majburlov chorasi hisoblanadi" [6]. A.V. Kalinina fikrini davom ettirib I.I. Lukashuk ham sanksiyalarni xalqaro javobgarlik huquqining elementi sifatida e'tirof etgan. I.I. Lukashukning fikricha sanksiya – xalqaro tashkilot tomonidan huquqbuzarga nisbatan uni javobgarlik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishga undash uchun ko'riladigan majburlov choralari [7] hisoblanadi.

Bugungi kunda, ilmiy hamjamiyatda xalqaro tashkilotlarning institutsional mexanizmidan foydalangan holda huquqbuzar davlatga nisbatan qo'llaniladigan majburlash choralari sifatida sanksiyalar tushunchasi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Huquqshunos olim P.N. Biryukovning ta'kidlashicha sanksiyalar xalqaro huquq tomonidan ruxsat etilgan va maxsus protsessual tartibda amalga oshiriladigan, xalqaro huquq subyektlari tomonidan xalqaro huquqiy tartibni himoya qilish uchun

qo'llaniladigan majburlov chorasi, ya'ni, agar huquqbuzar davlat huquqbuzarlikni to'xtatish hamda jabrlanganlarning huquqlarini tiklashdan ixtiyoriy tarzda bosh tortmasa unga nisbatan xalqaro majburlov choralari qo'llaniladi [8].

Nemis olimlari V. Vitstum va R. Dolzer sanksiyalar xalqaro huquq normalarining buzilishiga javoban ko'riladigan va mas'ul davlatni uni buzganligi uchun noqulay huquqiy oqibatlarga olib keladigan xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlarini to'xtatishga qaratilgan har qanday huquq yoki imtiyozlarni cheklovchi chora-tadbirlardir, deb hisoblaydilar [9].

Xalqaro huquqda sanksiyalarni to'g'ri tavsiflash uchun ushbu atamaning xalqaro huquqiy javobgarlik va qarshi choralari tushunchalari bilan aloqasini tahlil qilish muhimdir, chunki ko'pchilik mazkur tushunchalarni adashtirib yuboradi.

Bizga xalqaro huquqdan ma'lumki, davlatning har qanday g'ayriqonuniy xalqaro xatti-harakati ushbu davlatning xalqaro javobgarligini keltirib chiqaradi, hamda xalqaro huquqda belgilangan cheklov choralari qo'llash uchun sabab bo'ladi.

Biz yuqorida keltirib o'tgan sanksiya, javobgarlik va qarshi chora atamalari to'g'risida olimlar quyidagi fikrlarni keltirib o'tishgan. Xususan, I.I. Lukashukning ta'kidlashicha, javobgarlik sanksiyani amalga oshirish, harakatning natijasi va sanksiyani qo'llashdir [10]. Olimlar G.V. Ignatenko va O.I. Tiunov jazo choralari qonunbuzarning javobgarlikka tortilishini ta'minlashga qaratilgan javob majburlov choralari sifatida tushunadilar [11]. Ularning fikricha, javobgarlik instituti, xalqaro huquqiy sanksiyalarni o'z ichiga oladi. Huquqshunos olim S.A. Yegorov esa "sanksiyalar va javobgarlik" atamasini birlashtirib, "xalqaro huquqda sanksiya javobgarligi" tushunchasini ajratib ko'rsatgan [12] bo'lsa, I.V. Getman-Ravlova xalqaro huquqda sanksiyalar va xalqaro huquqiy javobgarlik o'rtasidagi farqlari quyidagicha ifodalagan:

1. Javobgarlik bu – xalqaro huquq normalarini buzgan davlatning xarakatlari bo'lsa, sanksiyalari jabrlangan davlat yoki xalqaro tashkilotning xarakatlari ifodasidir;

2. Javobgarlik bu – xalqaro huquq normalarini buzgan davlatning burchi, sanksiyalar esa jabr ko'rgan davlatning huquqi hisoblanib uni qo'llash ixtiyoriydir;

3. Javobgarlik bu – huquqbuzar davlatning noqonuniy bo'lgan ixtiyoriy xarakati, sanksiya esa huquqbuzarga nisbatan jazo chorasini qo'llash irodasi hisoblanadi [13].

Xalqaro huquqda sanksiyalar xalqaro huquqbuzarliklar uchun javobgarlik hisoblanmaganligi singari, xuddi shunday xalqaro huquqiy javobgarlik shakllari ham sanksiya vazifasini bajarmaydi. Xalqaro huquqda sanksiyalar va xalqaro huquqda javobgarlik o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida qaror qabul qilishda, birinchi navbatda, zamonaviy xalqaro huquqning o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, uning normalarini hisobga olish kerak. Masalan, BMT Nizomi, boshqa ba'zi xalqaro tashkilotlarning ustavlari, alohida ikki tomonlama shartnomalar va xalqaro odat normalarida javobgarlik turlari va ko'lami aniq ko'rsatilmagan, lekin mazkur nizom va boshqa xalqaro xujjatlarda cheklov choralari (sanksiya) to'g'risida aniq tushunchalar ularni qo'llash bilan bog'liq holatlar ko'rsatib o'tilgan. Shunday qilib, xalqaro ommaviy huquqda "sanksiya" tushunchasi javobgarlik turlari bilan emas, balki majburlash choralari bilan bog'liq bo'lib, u bilan cheklanmagan holda, xalqaro ommaviy huquqning mustaqil institutini ifoda etadi.

Demak, xalqaro huquqda sanksiyalar tufayli yuzaga kelgan imkoniyatlarni cheklanishi huquqbuzar davlatning javobgarligini ifoda etmaydi u imkoniyatlarni cheklanishiga qaraganda boshqacha xarakterga ega. Ya'ni, xalqaro iqtisodiy sanksiyalar tufayli huquqbuzar davlat javobgarlikdan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarishni o'z zimmasiga olmaydi, balki xalqaro huquqning zarar ko'rgan subyektlari vakolatlarini amalga oshirmaydi. Aksincha, ta'sir etuvchi davlatlar sanksiyalarni o'zlari amalga oshirishda katta xarajatlarga duchor bo'lishlari mumkin [14].

M. Baguslavskiy ta'kidlaganidek, ba'zida zamonaviy xalqaro huquqda sanksiyalar boshqa davlat tomonidan qurolli kuch ishlatmasdan, uning qonuniy manfaatlari yoki huquqlariga daxldor jinoyatlar sodir etilishiga javoban o'z-o'ziga yordam berishning bir qismi sifatida davlatlar tomonidan individual ravishda qo'llaniladigan majburlash choralari deb ataladi. Menimcha ta'rifda "sanksiya" emas, balki "javob choralari" tushunchasi qo'llansa to'g'ri bo'lar edi. Shuningdek, M. Boguslavskiy shunday ta'kidlaydi, agar majburlash choralari xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilsa, ularni sanksiya deb atash kerak, agar alohida davlatlar tomonidan bo'lsa, "javob choralari" yoki "qarshi choralari" atamalarini qo'llash to'g'riroq bo'ladi [15].

Shunday qilib, eng umumiy shaklda xalqaro huquqda iqtisodiy sanksiyalarning asosiy maqsadi siyosiy munosabatlardir, lekin ta'sir qilish vositasi butun mamlakat iqtisodiyotini yoki uning alohida tarmoqlarini beqarorlashtirish maqsadida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni bevosita cheklovchi chora-tadbirlardir. Nazariy jihatdan qaraydigan bo'lsak, sanksiyalar firmalar monopoliyasiga o'xshab, aslida davlatning monopoliyasini ifodalaydi, bu nafaqat sanksiya ostida qolgan davlatning, balki boshqa davlatlarning ham iqtisodiy va gumanitar xarajatlarini oshishiga olib keladi. Tashqi siyosatni optimallashtirish nomi bilan, har qanday monopoliya singari, ular ham iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga va boshqa ijtimoiy-gumanitar oqibatlariga olib keladi.

Keltirib o'tilgan tahlillardan xulosa qiladigan bo'lsak, "sanksiyalar" tushunchasini talqin qilishning xilma-xilligi ushbu atamaning aniq mazmunini ochib beradigan yagona hujjatning yo'qligi bilan bevosita bog'liqdir, shu sababli, ilmiy jamoatchilik vakillari mazkur atama yuzasidan tahlillariga ko'ra, o'zlarining mualliflik ta'riflarini taklif qilishadi. Biz ham olib borgan o'rganishlarimizga asosan iqtisodiy sanksiyalarga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq deb hisobladik: ***iqtisodiy sanksiyalar*** – *sanksiyalar obyekti bo'lgan mamlakatlar hukumatlarini o'z siyosatini o'zgartirishga majbur qilish maqsadida bir davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan boshqa davlat yoki davlatlar guruhiga nisbatan qo'llaniladigan iqtisodiy xarakterdagi cheklovchi choralardir.* Ya'ni bunday sanksiyalar sanksiya ostidagi mamlakatlarga tovar eksport hamda importini to'liq yoki qisman taqiqlash, ushbu mamlakatlar bilan moliyaviy operatsiyalarni, shu jumladan transchegaraviy hisob-kitoblarni va investitsiyalarni cheklashda ifodalanishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha ta'riflarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, xalqaro huquqda sanksiyalar va iqtisodiy cheklovlarni qo'llash murakkab masala bo'lib, uni qo'llashda ko'zlangan maqsadlarga erishishda qo'llanilayotgan sanksiyalar qay darajada samarali ekanligi, maqsadli davlat va uning aholisiga ta'siri shuningdek, qo'llanilayotgan sanksiyaning xalqaro huquq va inson huquqlariga muvofiqligi sinchkovlik bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Sanksiyalar va iqtisodiy cheklovlarni xalqaro huquqda qo'llash xalqaro tinchlikni va xavfsizlikni saqlab turish uchun muhim vosita bo'lsa-da, ularni tinch aholiga va asosiy xizmatlarga yetkazadigan zararini minimallashtirish va inson huquqlarini buzmagani holda xalqaro havfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida qo'llash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Юридический словарь / гл. ред. С.Н. Братусь [и др.]. М.: Госюриздат, 1953. [Электронный ресурс] // Официальный сайт «Академик»; URL: https://soviet_legal.academic.ru/1617

2. Мирный договор между Союзными и Объединившимися державами и Германией (Версальский договор) (Вместе со «Статутом Лиги Наций», «Уставом Международной организации труда») (Подписан в г. Версале 28.06.1919) [Электронный ресурс] // Официальный сайт СПС «КонсультантПлюс»; URL: <http://www.consultant.ru>

3. <https://docs.fcdo.gov.uk/docs/UK-Sanctions-List.html>

4. Василенко В.А. Международно-правовые санкции. Киев: Вища школа, 1982. 68.бет.

5. Нешатаева Т.Н. Международно-правовые санкции специализированных учреждений ООН: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 1985. 17.бет.

6. Калинин А.В. Международные санкции в механизме внешнеторгового регулирования: комментарии к статьям 37 и 40 Федерального закона «Об основах государственного регулирования внешнеторговой деятельности» // Реформы и право. 2008. № 4.

7. Лукашук И.И. Право международной ответственности. М., 2007.

8. Бирюков П.Н. Международное право: учеб. пособие. М., 1998.

9. Международное право. Volkerrecht / Вольфганг Граф Витцтум, М. Боте, Р. Дольцер и др.; пер. с нем. Т. Бекназара, А. Насыровой, Н. Сплица; науч. ред. Т.Ф. Яковлева; пред., сост. В. Бергманн. М.: Инфотропик Медиа, 2011. [Электронный ресурс] // Официальный сайт СПС

10. Лукашук И.И. Право международной ответственности // Международное публичное и частное право. 2002. № 2.

11. Международное право: учебник / отв. ред. Г.В. Игнатенко и О.И. Тиунов. М.: Норма, 2007.

12. Международное право: Учебник 5-е издание, переработанное и дополненное / отв. ред. С.А. Егоров. М.: «Статут». 2014.

13. Гетьман-Павлова И.В. Международное право: учебник для бакалавров. М.: Юрайт, 2013.

14. Лайтман В.И. Санкции в международном публичном праве // Актуальные проблемы теории и истории правовой системы общества. 2020. № 14.

15. Богуславский М. М. Международное экономическое право. М., 1986.